

Abdullajonov Xumoyun Nozimxon o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

MEDIATSIYA SOHASIDA LAW TECH VA LEGAL TECH DASTURLARI

Abdullajonov Khumoyun Nozimkhon ugli
Master student of Tashkent State University of Law

LAW TECH AND LEGAL TECH PROGRAMS IN THE SPHERE OF MEDIATION

Абдуллажонов Хумоюн Нозимхон угли
Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

LAW TECH И LEGAL TECH ПРОГРАММЫ В СФЕРЕ МЕДИАЦИИ

Mediatsiya sohasida Law tech va Legal tech dasturlari

Bugungi kunda barcha sohalarda raqamlashtirish va zamonanaviy axborot texnologiyalar qo'llash jarayonlari o'sib bormoqda. Xususan, huquq sohasida ham mazkur tendensiyalarni kuzatish mumkin. Ayniqsa, ushbu yo'nalishda dunyoda Law tech va Legal tech dasturlaridan foydalanish rivojlanib bormoda.

Ma'lumot uchun: Legal tech - bu yuridik sohani raqamli texnologiyalar bilan qamrab oluvchi, yuridik xizmatlarni avtomatlashtirilgan tarzda ko'rsatish, shuningdek yuridik masalalarni raqamli texnologiyalar yordamida yechishga qaratilgan yurisprudensiya va axborot texnologiyalari sohalari uyg'unligida hosil bo'lgan yo'nalishidir.

LawTech - huquqiy xizmatlarni olishni an'anaviy usulidan yangisiga almashtirishga imkon beruvchi va (yoki) foydalanuvchilarga huquqiy ma'lumotlarga kirishni osonlashtiruvchi turli xil onlayn ilovalar va xizmatlardir.

Law tech va Legal tech **o'rtasidagi asosiy farqi** shundaki, Law tech texnologiyalari yuridik xizmatlarning oxirgi iste'molchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, ular huquqiy maslahat yoki xizmatni huquqshunoslarga murojaat qilmasdan olish imkoniyatini ochadi, Legal tech esa raqamlashtirish va huquqshunoslar ishlarini osonlashtirish uchun mo'ljallangan.

2019-yilda Legal tech dunyo bo'yicha 17 mrd dollar foyda keltirgan. Legal tech and law tech bo'yicha yangi loyihalarning o'sishi 28%ni tashkil etadi hamda 2025-yilga kelib 2.5 mrd dollar foyda keltirishi kutilmoqda. Dunyoda yuristlar ishining 63 foizi qaytariladigan jarayondan iborat bo'lib, ularni osongina legal tech va law tech

orqali bajarish mumkin. So‘nggi 5 yil ichida dunyoda Law tech va Legal tech uchun patentlar soni 484% ga o‘sgan.

Mazkur texnologiyalardan foydalanish quyidagi qulaylik va imkoniyatlarga ega:

- *xizmat ko‘rsatish ko‘lamining kengligi.* Yangi texnologiyalar yuridik firmalar uchun global bozorga chiqish imkoniyatini yaratib berdi. Buning natijasida yuridik firmalar mijozlarga chet hududlardan xizmat ko‘rsatish imkoniga ega bo‘lishdi;
- *shaffoflikning yuqoriligi.* Biror masala bo‘yicha aniq va ochiq ma‘lumotga ega bo‘lishlari mumkin bo‘lmoqda;
- *manbalardan keng foydalanish imkoniyatlarining ortishi.* Yangi texnologiyalar tufayli endilikda biror masala yuzasidan ma‘lumot manbalari bilan ishlashda inson omili o‘rniga maxsus dasturlardan foydalanish yuqori samaradorlikni ta‘minlamoqda;
- *tezkorlik.* Sun‘iy intellekt yechimlari tadqiqotni tezkor bajarishi va hujjatlarni millisekundlarda tahlil qilishi mumkin;
- *kamroq xatolar.* Sun‘iy intellekt xatolar ehtimoli sezilarli darajada kamaytiradi.

Bugungi kundan ilg‘or xorijiy mamlakatlarda mediatsiya sohasida Law tech va Legal techlarda samarali foydalanilmoqda. Xususan, **Gonkong** dunyoning eng katta moliyaviy markazlaridan (Osiyoda 1-o‘rinda, dunyoda Nyu-York va Londondan keyin 3-o‘rinda turadi) biri hisoblanib, mamlakatda yirik iqtisodiy shartnomalar tuzilishi uchun yuqori darajadagi yuridik xizmatlar ko‘rsatishni talab qiladi. Biznes muzokaralarni olib borishni yengillashtirish, ularda innovatsiyalarni keng joriy etish hamda elektron biznes bilan bog‘liq nizolarni oldini olish maqsadida mamlakat adliya vazirligi tashabbusi bilan elektron mediatsiya platformasi (eBRAM) yaratildi.¹

eBRAM – bu biznes bilan bog‘liq elektron mediatsiya platformasi bo‘lib, muammolarni hal etishning muqobil, samarador va iqtisodiy jihatdan nisbatan zararsiz yo‘llarini taqdim etadi. Ushbu platforma bosh direktori Daniel Lamning fikricha, kichik biznes vakillari ham xizmatdan foydalanishi va huquqiy yordam olishlari mumkin. Gonkong adliya vaziri Tereza Cheng hukumat yuridik sohadagi yangi texnologiyalarni, ayniqsa mediatsiya masalalari qo‘llab-quvvatlashini ma‘lum qildi. Hukumat ushbu loyiha uchun 150 million dollar ajratdi.

Ma‘lumot uchun: eBram nizolarni hal etish onlayn xalqaro markazi (International Online Dispute Resolution Center Limited) – mustaqil notijorat tashkilot bo‘lib, 2018 yilda Gonkongda tashkil etilgan. Tashkilotning asosiy maqsadi Gonkongda vositachilik va arbitraj xizmatlari sifatini oshirish hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda chet elda nizolarni hal etish xizmatlariga bo‘lgan talablarni qondirishdir. Shuningdek, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi tashkiloti, Janubiy-sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi(ASEAN), ishtirokchi mamlakatlar va boshqa

¹ <https://www.ebram.org/index.html>

davlatlar bilan hamkorlikda Gonkongni LawTech hamda xalqaro biznes nizolarni hal etish markazi maqomini mustahkamlashdir.

eBRAM quyidagi rejimda ishlaydi:

- avvalo platforma hakam va yuristlardan iborat xolis shaxslarni taqdim etadi. Ular murojaat etuvchilarning taqdim etgan ishlarini ko‘rib chiqadi va yechimlarini izlaydi;
- platforma zamonaviy va nisbatan qulay bo‘lgan to‘lov tizimlariga ega. eBRAM maxsus himoyalangan virtual axborot tizimi bo‘lib, dunyoning istalgan qismidan unga ulanish mumkin;
- mediatsiya bo‘yicha asosiy uchrashuv va eshittirishlar tashkil etish va o‘tkazish, shuningdek, elektron imzo texnologiyasidan foydalangan holda muhim hujjatlarni imzolash;

Ma’lumot uchun: eBRAM yordami bilan Xalqaro xususiy huquq instituti va Gonkongning maxsus ma’muriy hududi o‘rtasida virtual imzolash marosimi o‘tkazildi. eBRAM elektron imzo texnologiyasi dunyoning turli burchaklaridagi bir nechta tomonlarga xususiy onlayn platforma orqali bir vaqtning o‘zida bir xil elektron hujjatni xavfsiz imzolash imkonini beradi. eBRAM Gonkongni LawTech markazi sifatida maqomini mustahkamlash uchun ko‘proq LawTech xizmatlarini joriy qilish orqali zamonaviy va keng qamrovli huquqiy onlayn platformani ishlab chiqishga intilmoqda.

Singapur bugungi kunda davlat xizmatlari va huquqiy yordam ko‘rsatish sohasida dunyoning qolgan davlatlari uchun namuna sifatida xizmat qilmoqda. Mazkur davlat 2020-yil qonun ustuvorligi indeksi ko‘ra (World Justice Project Rule of Law) dunyoda **12-o‘rinda** qayd etilgan.¹

Mamlakatda nizolarni hal etishning onlayn platformalari (Online Dispute Resolution Platforms) rivojlanib bormoqda. Bunday platformalar mediatsiya xizmatlarini ko‘rsatadi. Odatda bunday xizmat jarayonlari tomonlar tomonidan platformaga tegishli ish bo‘yicha asosiy ma’lumotlarni pochta orqali yuborishi bilan boshlanadi. Shundan so‘ng, platforma tegishli tomonlar bilan virtual uchrashuv tashkil qiladi. Uchrashuv tomonlar bilan alohida tashkil etilishi ham mumkin. Agarda tomonlar o‘zaro murosaga kelishsa, onlayn tarzda kelishuv hujjatini imzolaydi. Hozirgi kunda davlatlar tomonidan nizolarning hal etishning onlayn platformalari kichik da’volarni ko‘rib chiqadi va yuridik yordamlar ko‘rsatishadi.

Nizolarni hal etishning onlayn platformasi Singapur mediatsiya markazi (Singapore Mediation Centre) tomonidan ishga tushirilgan bo‘lib, samarali faoliyat olib borib kelmoqda.²

Ma’lumot uchun: Singapur mediatsiya markazi (Singapore Mediation Center, SMC) nizolarni hal etishning muqobil yo‘llarini taqdim etadigan yetakchi tashkilotdir. Ushbu xizmatlarga vositachilik, sud jarayoni ishlari, xolis baholash va nizolarni hal etishlar kiradi. Markaz rasmiy saytida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, markaz tashkil topgan 1997 yil 16 avgustdan buyon 10 milliard dollar

¹ <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/country/2020/Singapore/>

² <https://www.mediation.com.sg/>

miqdoridagi 4900 ta ishni hal etgan. Bundan tashqari ishlarning 90%i bir kunda hal etilganligi, uning samarali faoliyat olib borayotganligi ko'rsatadi